

## TALABALARNING KOMMUNIKATIV MADANIYATINI RIVOJLANTIRISHNING MAZMUNI

*Sh.Sh.Olimov*

*Buxoro davlat universiteti professori, p.f.d.*

*D.F.Oltiyeva*

*Buxoro davlat pedagogika instituti magistr*

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada ta’lim tarbiya, turli munosabatlar ta’sirida barkamol shaxs sifatida shakllanashi va rivojlanishi, insonni jamiyatdan va shaxslararo bo’ladigan o’zaro muloqotdan ajratib qo’yish, uni shaxs sifatida shakllanishiga to’siq bo’lishi kabi masalalar yoritilgan. Shuningdek, o’quvchilarda muloqot madaniyatini shakllantirishda ko‘plab metodlar bilan bir qatorda, savol-javob, suhbat hamda trening metodlari muhim ahamiyatga ega ekanligi, talabalarning muloqot madaniyati ko‘nikmalarini shakllantiradigan usullar va pedagogik jarayonda o‘ziga xos bu usullardan foydalanish natijasidagina kutilgan samaradorlikka erishish mumkinligi tahlil qilingan.

**Kalit so’zlar:** kommunikatsiya, madaniyat, muloqot, kognitiv, emotsiya, chorlovchi muloqot, modellashtirish bosqichi.

**Аннотация:** В данной статье рассматриваются такие вопросы, как образование, воспитание, становление и развитие зрелой личности под влиянием различных отношений, отрыв человека от общества и межличностного общения, препятствия на пути его становления как личности., предполагается, что кроме многих методов в формировании культуры общения у студентов важное значение имеют вопросно-ответные, интервью и обучающие методы, методы, формирующие навыки культуры общения студентов и уникальность использования этих методов в педагогический процесс прогнозируется, анализируется эффективность.

**Ключевые слова:** коммуникация, культура, коммуникация, познавательная, эмоциональная, приглашающая коммуникация, этап моделирования.

**Abstract:** This article covers issues such as education, upbringing, the formation and development of a mature person under the influence of various relationships, the separation of a person from society and interpersonal communication, and the obstacles to his formation as a person. In addition, it is expected that in addition to many methods in the formation of communication culture in students, question-and-answer, interview and training methods are important, the methods that form the communication culture skills of students and the unique use of these methods in the pedagogical process are expected. efficiency is analyzed.

**Key words:** communication, culture, communication, cognitive, emotion, inviting communication, modeling stage.

**Kirish.** Taraqqiy etayotgan Yangi O'zbekistonda bugungi kunda zamonaviy ta'lif metodining keng qamrovli jihatlari ta'lif tizimida qo'llanilib kelinmoqda. Yurt ravnaqi, mamlakatimiz kelajagi uchun zamonaviy ta'lif katta ahamiyat kasb etadi. Bugungi kunda, yangi yangilanish davrida zamonaviy ta'lifning maqsadi – sifatli kadrlar tayyorlash, talaba shaxsini rivojlantirish, talabalarni ijtimoiy ahamiyatga ega ruhda tarbiyalash, ta'lif sifatini oshirish, talabalarni jamiyatga zarur shaxs yetuk inson sifatida tarbiyalashdir.

Oliy ta'lilda shaxs rivojlanishining tarkibiy qismlaridan biri talabalarning muloqot madaniyatidir. Oliy ta'lilda intellektual soha mutaxassisasi va ta'limga ijodiy yondasha oladigan shaxsni rivojlantirishda muloqot madaniyati eng muhim resurslardan biridir.

**Asosiy qism.** Ko'pincha kommunikativ madaniyat tushunchasi aloqa madaniyati (I.A. Ilyanova, E.S. Makaryan), kommunikativ kompetensiya (S.L. Bratchenko, Yu.N. Emelyanova, E.V. Rudenskiy, M.N. Vyatutnev), nutq madaniyati (L.A. Vvedenskaya, L.G. Pavlova, B.N. Golovin), og'zaki muloqot madaniyati (O.M. Kazartseva), og'zaki xatti-harakatlar madaniyati (A.K. Mixalskaya) kabi atamalar bilan tenglashtiriladi.

Shunday qilib, o'qituvchining kommunikativ madaniyati nutq madaniyatiga yaqin bo'lgan tushunchadir, ammo bir qator farqlar mavjud. Kommunikativ madaniyat bilan bog'liq ta'riflarni ko'rib chiqamiz.

O'qituvchining ensiklopedik lug'atiga ko'ra, kommunikativ madaniyat - bu shaxslararo muloqot qonuniyatları, turli xil hayotiy va mehnat vaziyatlarında va shaxsiy kommunikativ fazilatlarda o'z vositalaridan foydalanish k o'nikmalari va qobiliyatları majmui. Kommunikativ madaniyat - bu shaxsiyatning asosiy madaniyatining tarkibiy qismi bo'lib, uning hayotni o'zi belgilashga tayyorligi, atrofdagi voqelik va uning ichida uyg'un munosabatlarni o'rnatish.

I. Rydanova quyidagi tarkibiy qismlarni o'z ichiga olgan kommunikativ shovqin madaniyati tushunchasini taqdim etadi:

- o'quvchilarning o'qituvchining harakatlari va harakatlariga, qo'shma harakatlarning sinxronligiga reaksiyalarining yetarliligi;
- hissiy-kognitiv faoliyat, ijodiy izlanish va hamkorlik muhiti;
- o'qituvchi va talabalar o'rtasidagi biznes va shaxslararo aloqada axloqiy-axloqiy me'yorlarga rioya qilish.

V.N. Yanushevskiy kommunikativ madaniyatni tahlil qilish uchun vakolatlarga asoslangan yondashuvni joriy etdi.

Shaxsnинг shakllanishida muloqotning ahamiyati haqida psixolog olimlar o'z fikrlarini bayon qilganlar. Jumladan, psixolog B.G. Ananev «Odam bilishning

predmeti sifatida »asarida bu masalani chuqur tahlil qilgan. U bilimning turli elementlarini egallash muvaffaqiyatl o'zlashtirishning garovi ekanligini ta'kidlaydi. Bilimlarni egallash muloqot orqali amalga oshirilishini ham uqtirib o'tadi. Agar kishilar o'zaro bir-birlariga axborot uzatmasalar, tajribalarini muloqot orqali almashmasalar rivojlanmay qolishlari to'g'risida B.G. Ananev asosli fikrlarni keltiradi.

«Muloqot» tushunchasining turlicha ta'riflari mavjud. Muloqot ikki yoki undan ortiq odamlar o'rtasidagi bilish yoki affektiv-baholash xususiyatiga ega bo'lgan axborot almashinuvida ularning o'zaro ta'sirlashuvi sifatida ta'riflanadi. Yoki: muloqot – odamlar o'rtasida hamkorlik faoliyati ehtiyojidan yuzaga keladigan va axborot almashinuvi, o'zaro ta'sirning yagona yo'lini ishlab chiqish, boshqa odamni idrok qilish va tushunishdan iborat bo'lgan aloqalarni o'rnatish va rivojlatirishning murakkab, keng qamrovli jarayoni. Bu «muloqot» tushunchasining eng to'liq va aniq ta'rifidir.

Muloqot - odamlar o'rtasida birgalikdagi faoliyat ehtiyojlaridan kelib chiqadigan bogianishlar rivojlanishining ko'p qirrali jarayonidir. Muloqot (munosabat) birgalikda faoliyat ko'rsatuvchilar o'rtasida axborot ayirboshlashni o'z ichiga oladi. Bunda munosabatning kommunikativ (o'zaro aloqaga doir) jihatni hisobga olinadi. Muloqot tushunchasini kommunikatsiyadan farqlash kerak.

Kommunikatsiya - tirik va o'lik tabiatdagi tizimlar o'rtasida axborot almashinuvini anglatadi. Hayvonlar o'rtasidagi signallar almashinuvi, insonning texnik vositalar bilan aloqa qilishi -bularning barchasi kommunikatsiya. Muloqot esa faqat insonlar o'rtasidagina amalga oshirilishi mumkin. Inson bolasi aynan boshqalar bilan muloqotda va munosabatda bo'lish jarayonida shaxsga aylanib boradi, ijtimoiy tajriba va madaniyatni egallab boradi. Muloqot ijtimoiy faollikning ontogenetika (individual rivojlanish yo'li) paydo bo'ladigan birinchi turidir. Faoliyat davomida insonlar o'rtasida yangi-yangi munosabatlar va aloqalar shakllanadi. Demak, faoliyat va muloqot o'zaro chambarchas bog'liqdir.

AN.Leontev pedagogik muloqotning tarbiyaviy-didaktik ahamiyatini baholar ekan, quyidagi fikrlarni bildiradi: faol pedagogik muloqot - o'qituvchining, umuman olganda pedagogik jamoaning ta'lim-tarbiya jarayonida o'quvchilarni bilish va o'rganish kaliti va o'quv faoliyatining ijodiy xarakteri, o'quvchi shaxsining shakllanishi uchun eng yaxshi sharoit yaratadigan, ta'lim-tarbiyada maqbul bo'lgan emotsiional muhitni ta'minlovchi, jumladan, ruhiy psixologik to'siqlarning paydo bo'lishini oldini oladigan, bolalar jamoasida ijtimoiy-psixologik jarayonlarni to'g'ri yo'lga solib boshqarishni ta'minlaydigan va o'quv tarbiyaviy jarayonda o'qituvchining o'z pedagogik mahoratidan oqilona foydalanishi uchun imkoniyatlar yaratadigan muhim vositadir. Pedagogik faoliyatda muloqot talabalarga zamon talablar asosida ta'lim berish vazifalarini hal qilish vositasi, tarbiyaviy jarayonlarni ijtimoiy-pedagogik jihatdan ta'minlash tizimi sifatida namoyon bo'ladi.

Ilg‘or pedagogik tajribalarni tahlili hamda taniqli olimlar A.S. Makarenko, V.A. Suxomlinskiy va boshqalarning pedagogik faoliyatini o‘rganish natijasida shunday xulosaga kelish mumkin, aynan talabalar bilan o‘qituvchi muloqotining pedagogik ta’sir vositasi nihoyatda beqiyos, muloqotni pedagogik mahoratning eng muhim birlamchi vositasi sifatida chuqur egallaganlik ta’lim-tarbiya jarayonining samaradorligin har tomonlama oshirishni ta’minlaydi. A.S. Makarenko muloqotni pedagogik ta’sirning javob vositasi sifatida ta’riflab, insonlararo muloqotni ta’minlovchi eng muhim va nozik faoliyat ekanligini aytadi.

Muloqot mazmuni – bu individualliklararo aloqalarda bir tirik jonzotdan ikkinchisiga yetkaziladigan axborot. Muloqot mazmuniga tirik mavjudotning ichki motivatsion yoki emotsiyal holati haqidagi ma’lumotlar kirishi mumkin. Muloqot orqali bir tirik mavjudotdan ikkinchisiga, tirik mavjudotni ma’lum tartibda aloqaga kirishishga yo‘naltiruvchi, ularning emotsiyal holatlari (mamnunlik, shodlik, g‘azab, qayg‘u, hijron va shu kabilar) haqidagi ma’lumotlar o‘tishi mumkin. Bunday axborot odamdan odamga yetkaziladi va shaxslararo aloqalar o‘rnatish vositasi bo‘lib xizmat qiladi.

Biz, ochiq ko‘ngilli va shodlanayotgan odamga qaraganda, g‘azablanayotgan yoki azob chekayotgan odamga nisbatan o‘zimizni boshqacha tutamiz. Bir mavjudotdan boshqasiga yetkaziladigan tashqi muhit holati haqidagi ma’lumot, masalan, xavfdan yoki yaqin atrofda ijobjiy, biologik muhim omillarning, deylik, ozuqaning mavjudligi haqidagi ogohlantirish muloqot mazmuni bo‘lishi mumkin. Odamda muloqot mazmuni hayvonlarnikiga qaraganda ancha kengroqdir. Odamlar bir-biri bilan dunyo haqidagi bilimlar, orttirilgan tajriba, layoqatlar, malaka va ko‘nikmalarni jamlagan axborot bilan almashadilar. Inson muloqoti ko‘p jismli bo‘lib, ichki mazmuniga ko‘ra turli-tumandir.

Muloqot maqsadi – Hayvonlarda muloqot maqsadi bo‘lib boshqa tirik jonzotni ma’lum harakatga chorlash, u yoki bu harakatni amalga oshirmslik kerakligi haqidagi ogohlantirish xizmat qilishi mumkin. Masalan, ona o‘z tovushi yoki harakati bilan bolasini xavfdan ogoh etishi mumkin; podadagi ba’zi hayvonlar boshqalarni ularga hayotiy muhim daraklar etib kelgani haqida ogohlantirishlari mumkin.

Odamda muloqot maqsadlari soni ko‘payadi. Ularga yuqorida sanab o‘tilganlardan tashqari, dunyo haqidagi bilimlarga ega bo‘lish va yetkazish, ta’lim va tarbiya, odamlarning hamkorlik faoliyatlaridagi turli harakatlarning muvofiqlashuvi, shaxsiy va ish bo‘yicha o‘zaro munosabatlarning oydinlashtirilishi, o‘rnatilishi va boshqalar ham kiradi. Agar hayvonlarda muloqot maqsadlari ular uchun dolzarb bo‘lgan biologik ehtiyojlarni qondirishdan iborat bo‘lsa, odamlarda ular ko‘plab turli: ijtimoiy, madaniy, bilish, ijodiy, estetik, aqliy o‘sish, ahloqiy rivojlanish kabi ehtiyojlarni qondirish vositasi bo‘lib hisoblanadi.

Muloqot, odatda, beshta: shaxslararo, kognitiv, kommunikativ-axborotli, emotiv va konativ tomonlarining birligida namoyon bo‘ladi.

Muloqotning shaxslararo tomoni insonning bevosita atrof-muhiti: boshqa odamlar va o‘z hayotida bog‘liq bo‘ladigan umumiyliliklar bilan o‘zaro ta’sirini aks ettiradi.

Muloqotning kognitiv tomoni suhbatdoshning kim, qanday odam ekanligi, unlan nima kutish mumkinligi haqidagi, shuningdek, sherikning shaxsi bilan bog‘liq bo‘lgan boshqa ko‘pgina savollarga javob berish imkonini beradi.

Muloqotning kommunikativ-axborotli tomoni tasavvurlar, g‘oyalar, qiziqishlar, hissiyotlar, mayllari turlicha bo‘lgan odamlar o‘rtasidagi almashinuvdan iborat.

Muloqotning emotiv tomoni sheriklarning shaxsiy aloqalaridagi his-tuyg‘ular, kayfiyatning vazifa bajarishlari bilan bog‘liq.

Muloqotning konativ (hulq-atvor tomondan) tomoni sheriklar qarashlaridagi ichki va tashqi qarama-qarshiliklarni muvofiqlashtirishga xizmat qiladi.

Muloqot turli-tuman vazifalarni bajaradi. Turli mualliflar muloqotning turli vazifalarini ajratib ko‘rsatadilar. G.M.Andreeva kommunikativ, interaktiv va perceptiv vazifasini sanab o‘tadi. M.I.Enikeev axborotli-kommunikativ, boshqaruv-kommunikativ, perceptiv-samarali va affektiv-ekspresiv (emotsional o‘zini ifodalash) vazifalarini ko‘rsatadi. A.A. Brudniy: instrumental, sindikatli, translyasiya, o‘zini ifodalash vazifalarini ajratadi. Instrumental – bu muloqotning harakatni bajarish uchun muhim axborotni yetkazishdan iborat bo‘lgan asosiy ishchi vazifasi. Bu vazifaga yaqin bo‘lgan, lekin unga o‘xhash bo‘lmagan vazifa, birlashtirish – sindikativ vazifa. Ko‘pchilik muloqot aktlarining bevosita maqsadlari katta va kichik guruhlardagi odamlar o‘rtasidagi umumiylikni aniqlash va mustahkamlashdan iborat. Sindikativ vazifa bilan o‘zini ifodalash vazifasi bir-biriga yaqindir. O‘zini ifodalash o‘z mohiyatiga ko‘ra, hamfikrlikka, aloqaga qaratilgan. Alohida o‘rinni ijodiy faoliyatdagi o‘zini ifodalash egallaydi, u faoliyat mahsuli sifatida ijtimoiy ahamiyatga ega, chunki u, odamlar o‘rtasidagi muloqot predmetiga aylanadi. Va, nihoyat, muloqotning translyasion – faoliyatning aniq usullari, baholash mezonlari va dasturlarni etkazish vazifasi muhim ahamiyatga ega. Bu vazifa ta’lim olish asosida yotadi: muloqot orqali shaxsning ta’lim olishi amalga oshadi.

L.A. Karpenko maqsadga ko‘ra muloqotning sakkiz xil vazifasini belgilaydi:

-aloqaviy – xabarlarni qabul qilish va etkazish, hamda o‘zaro aloqada bo‘lishga ikkala tomonning shayligi holati sifatida aloqa o‘rnatish;

-axborotli – xabarlar, fikrlar, maqsadlar, echimlar va boshqalar almashinuvi;

-chorlovchi – muloqot bo‘yicha sherikni u yoki bu harakatlarni bajarishga yo‘naltiruvchi faolligini rag‘batlantirish;

- boshqaruvchi – hamkorlik faoliyatini tashkil etishda haraktlarni o‘zaro yo‘naltirish va muvofiqlashtirish;

- anglash vazifasi – etkazilgan ma'lumotning mohiyatini mutanosib holda idrok qilish va tushunishgina emas, balki, sheriklarning ham o'zaro bir-birlarini tushunishlari (istaklari, mayllari, kechinmalari, holatlari va h.k.larni);

-amotiv – sherikda zarur hissiyotli kechinmalarni uyg'otish ( »hislar almashinuvni«), shuningdek, uning yordamida shaxsiy kechinma va holatlarni o'zgartirish;

-munosabatlarni o'rnatish – individ mavjudligi kutilayotgan jamiyatdagi rolli, darajali, ish bo'yicha, shaxslararo va boshqa aloqalari tizimlarida o'z o'rnnini anglash va qayd etish;

-ta'sir o'tkazish– sherikning holati, hulq-atvori, shaxsiy-mazmunli hosilalari, shuningdek, istaklari, mayllari, fikrlari, echimlari, tasavvurlari, ehtiyojlari, harakatlari, faolligi va boshqalarni o'zgartirish.

B.F. Lomov muloqotning quyidagi vazifalarini taklif etadi:

- axborotni qabul qilish yetkazish jarayonlarini o'z ichiga olgan axborot-kommunikativ;

-hamkorlik faoliyatini amalga oshirishda harakatlarni o'zaro tuzatish bilan bog'liq boshqaruvchi-kommunikativ,

-inson hissiyotlari sohasiga tegishli bo'lgan va o'z emotsiunal holatini o'zgartirishdagi ehtiyojlarga javob beruvchi affektiv-kommunikativ vazifalar.

Ko'rsatib o'tilgan vazifalar real muloqot amaliyotida amalga oshiriladi.

Ta'kidlab o'tish lozimki, odamlarning amaliy faoliyatida muloqotning quyidagi turlarini ajratadilar:

«niqoblar aloqasi» - suhbatdoshning shaxs xususiyatlarini tushunish va hisobga olishga intilish mavjud bo'lman rasmiy muloqot bunda haqiqiy hissiyotlar, istaklar, munosabatlarni yashirish imkonini beruvchi rasmiy iboralar, odatiy xushmuomalalik, dimog'dorlik niqoblari, yuz, imo-ishora ifodalarining to'plami qo'llaniladi.

-oddiy muloqotda boshqa odamga zarur yoki xalal beruvchi ob'ekt sifatida baho beradilar: agar zarur bo'lsa, aloqaga faoliyit bilan kirishadilar, agar xalal beradigan bo'lsa, – itarib yuboradilar, yoki tahdidli qo'pol iboralarni qo'llaydilar.

- rasmiy-rolli muloqot - bu sheriklarning ijtimoiy rollari darajasidagi muloqot (boshliq - qo'l ostidagi xodim, sotuvchi -xaridor, servis xizmati xodimi - mijoz). Bunda ma'lum qoidalar va xohishlar asosida ish yuritilib, muloqot mazmuni va vositalari ularga bo'ysundirilgan.

-boshqariladiga muloqot suhbatdoshning shaxs xususiyatlaridan kelib chiqib, turli usullarni ( xushomad, qo'rqtish, aldov va boshqalar) qo'llagan holda undan foyda olishga qaratilgan.

-dunyoviy bu turning mohiyati biror mavzuga oid bo'lmagligidan iborat, ya'ni, odamlar o'z fikrlarini emas, balki bunday vaziyatlar uchun umumiyl bo'lgan fikrlarni bildiradilar.

-havoyi muloqot - bu muloqot uchun muloqot.

-do'stlarining ma'naviy, shaxslararo muloqoti vaqtida istalgan mavzuni qo'zg'atish va bir-birlarini yuz ifodasi, tovush ohangi va harakatlar yordamida tushunish mumkin.

Muloqot - murakkab hodisa. Shaxs muloqot qilishdan avval o'z oldiga bir necha vazifalarni qo'yadi. Jumladan, muloqot maqsadini, muloqot qachon, qayerda, necha yoshlilar bilan o'tkazilishini rejalashtiradi.

Rus pedagogi V.A.Kan-Kalikning fikricha, o'qituvchining pedagogik muloqoti tuzilishi quyidagi yo'nalishlarda amalga oshiriladi:

- prognostik bosqich (modellashtirish): O'qituvchi tomonidan sinf jamoasi bilan bo'lajak muloqotni modellashtirish.

- kommunikativ aloqa: O'quvchi bilan dastlabki o'zaro tanishuv jarayonida bevosita muloqotni tashkil etishga erishish.

- pedagogik jarayon: O'qituvchining xatti-harakati, pedagogik mahorati bevosita muloqotni boshqarishga qaratilgan bo'lishi kerak.

- natijalar tahlili: Amalga oshirilgan muloqotni tahlil etish, yutuq va kamchiliklami xolisona baholab kelgusi faoliyat uchun modellashtirish.

Olimning fikrlari asosida muloqotning ushbu yo'nalishlarini quyidagicha ta'riflash mumkin.

Modellashtirish bosqichida auditoriyaning barcha andozalarga javob berishi, har bir o'quvchining psixologik xususiyatlarini o'rganishi, ta'lim-tarbiyaviy jarayonda uchrashi mumkin bo'lgan qiyinchiliklar dinamikasini oldindan ko'ra olish va bartaraf etish, muloqotning o'zaro hamkorlik asosida qurilishi, ya'ni muloqot o'qituvchi shaxsiga emas, balki o'quvchi shaxsiga ham mos kelishini ta'minlash zarur.

Kommunikativ aloqa bosqichida sinf jamoasini o'zaro muloqotga tez jalb etadigan suhbat texnikasini puxta bilish, ularning barcha qiziqishlariga javob bera olish, erkin fikr bildirishlariga imkoniyat yaratish va o'quvchilar ongiga ijobjiy ta'sir etishning turli usullarini qo'llash metodlarini egallash lozim.

Pedagogik iaravon bosqichida o'qituvchining faoliyati bevosita ta'lim-tarbiyaviy ishlarni ma'lum bir yo'nalishga solish, o'quvchilar tashabbusini qo'llab-quwatlash, sinf jamoasining rasmiy va norasmiy liderlari bilan adolatli muloqotni tashkil etish, o'z fikrlarini jamoa fikrlari bilan real sharoitga moslashtira olish ko'nikmalarini yaratish kaliti faoliyat olib boriladi.

Natijalar tahlilida. o'qituvchi o'z faoliyatiga xolisona baho berish yutuq va kamchiliklami inobatga olib, kelgusi ta'lim-tarbiyaviy faoliyatida tanqidiy qo'llashni bilishi lozim, ushbu yo'nalishda maqsad, reja va natijalarning birligi ta'minlanadi, o'quv-tarbiya jarayonida o'qituvchiox'quvchilar bilan muloqotni tashkil etish va boshqarishda rahbarlikn tashabbuskor bo'la olishni bilishi kerak.

Muloqotning muvaffaqiyatli bo‘lishida o‘qituvchining kommunikativ madaniyati muhim o‘rin egallaydi. Bola o‘qituvchining dildan gapirayotganligini his qilib turishi kerak. Aks holda ishonchli, samimiy muloqot amalga oshmaydi. Ayrim pedagoglar bolalar bilan ularning yoshini hisobga olmasdan muloqotda bo‘ladilar. O‘qituvchi bola katta bo‘layotganligini sezib tursa, bu uning muloqot madaniyati shakllanayotganligidan dalolat beradi.

Muloqot inson hayotida qanchalik yuksak ahamiyatga ega ekanligini misollarda yaqqol ko‘rishimiz mumkin:

Birinchi misol. 1938-yil Richard Bard o‘z xoxishi bilan Antraktida muzliklarida 6 oy tanho qoladi.Bir tomondan u tajriba natijalariga qiziqla, ikkinchi tomondan kundalik hayotning g‘ala-g‘ovuridan biroz dam olishni istagan edi.Keyinchalik u mazkur davrni quydagi so‘zlar bilan eslaydi: «Bu yerdagi hayotim davomida bora-bora har bir harakatim, har bir ishim tobora mazmunsiz, mantiqsiz, maqsadsiz bo‘lib borayotgan edi.Xavf-xatarlardan qo‘rmaydigan odam bo‘lsamda ,negadir bu yerda tomning bosib qolishidan xavsiray boshladim.Ovqatlanishimda muntazamlik yo‘qoldi, yuvinmay qo‘ydim».

Uchinchi misol.Bir paytlarda Amerikada barcha tamaddixonalarni avtomatlashdirish avj olgan edi.Ammo ko‘p o‘tmay ularning egalari kasodga uchray boshladi. Ma’lum bo‘lishicha u yerga odamlar nafaqat tamaddi qilish, balki suhbatdosh toppish uchun ham kelganlar.

Bundan ko‘rinadi, insonlar doimo muloqotga ehtiyoj sezadilar va uni qondirishga harakat qiladilar.

**Xulosa.** Tahlillarimiz shuni ko‘rsatdiki, talabalarning o‘z tengdoshlari bilan amalga oshiradigan muloqotlari ularning o‘quv hamda ijtimoiy faoliyatlarida alohida ahamiyatga ega. Talabalarning o‘z tengdoshlari bilan amalga oshadigan muloqot talaba hayotida markaziy o‘rinni egallaydi. Bu, o‘z navbatida, talabaning o‘quv faoliyati va xulq-atvorining asosiy jihatlarini belgilaydi.Talabalarda muloqot madaniyatini shakllantirishga yo‘naltirilgan pedagogik jarayonda o‘ziga xos ish shakllari va metodlaridan foydalanish natijasidagina kutilgan samaradorlikka erishish mumkin. Talabalarda muloqot madaniyatini shakllantirishda ko‘plab metodlar bilan bir qatorda, savol-javob, suhbat hamda trening metodlari muhim ahamiyatga ega.

### Foydalilanilgan adabiyotlar.

1. Mirziyoyev Sh. “Milliy taraqqiyot yo‘limizni qat’iyat bilan davom ettirib, yangi bosqichga ko‘taramiz”. “O‘zbekiston” nashriyoti. T.: 2017. - 512 b.
2. Azizzoxjayeva N.N. “Pedagogik texnologiya va pedagogik mahorat” - T.: O‘zbekiston yozuvchilar uyushmasi Adabiyot jamg’armasi nashriyoti. 2006 y.
3. Karimova V.M. Fikr tarbiyasi va mustaqil fikrlash. – T.: «Ma’rifat», 1999 y. – 15-18 b.
4. Husanov B., G‘ulomov B. “Muomala madaniyati” T.: Ta’lim nashriyoti, 2009. - 158 b.
5. Shodiyev N.Sh, Shukrullaeva S. Talabalarni ma’naviy tarbiyaviy hayotga tayyorlash - T: Ma’naviyat, 2008. – 197 b.